

BADIIY SAN'ATLAR*Ahmedova Mo'tabar***Annotatsiya**

Ushbu maqolada adabiyotdagi badiiy san'atlarning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichi hamda ularning adabiy matn tuzilishidagi ahamiyati tahlil etiladi. Badiiy san'at tushunchasi, uning tasviriy vosita sifatidagi o'rni, asosiy turlari va funksional ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, tashbeh, isti'ora, tazod, kinoya, ramz va boshqa vositalar o'zbek va jahon adabiyoti namunalarida qanday ishlatilgani tahlil qilinadi. Maqolada adabiy badiiy san'atlarning estetik va g'oyaviy yuklanmasi ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar

Badiiy san'at, tasviriy vosita, adabiyot, tazod, tashbeh, isti'ora, ramz, estetik yuklama, g'oyaviy yuklama.

Annotation

This article analyzes the origin, stages of development, and significance of artistic devices in literature within the structure of literary texts. The concept of artistic expression, its role as a figurative tool, main types, and functional importance are extensively discussed. In particular, the article examines how simile, metaphor, antithesis, irony, symbolism, and other devices are used in samples of Uzbek and world literature. It also reveals the aesthetic and ideological functions of literary artistic devices.

Keywords

Artistic devices, figurative tools, literature, antithesis, simile, metaphor, symbolism, irony, aesthetic function, ideological function.

“Adabiyot - xalq qalbi, millat ruhi va ma’naviyat ko’zgusidir”[1], degan so’zlar davlatimiz rahbari tomonidan bejizga aytilmagan. Adabiyotda badiiy san’at tushunchasi bu yozuvchining fikr, tuyg’u va tasavvurlarini o’quvchiga ta’sirli, obrazli va estetik shaklda yetkazish uchun foydalaniladigan ifoda vositalaridir. Badiiy san’at esa bu san’atning asosi. U orqali muallif voqelikni bevosita emas, balki obrazlar orqali aks ettiradi. Badiiy san’atlar matnning ta’sirchanligini oshiradi, uni his-tuyg’ular bilan boyitadi. Adabiyotshunoslikda ular “badiiy tasvir vositalari”, “poetik vositalar” deb ham yurritiladi. Adabiyotning asosiy vazifalaridan biri hayotni estetik idrok orqali aks ettirishdir. Badiiy san’at vositalari qadim adabiyotlardan boshlab ishlatilib kelinadi. Antik davr grek adabiyotlarida tashbeh va metafora keng qo’llanilgan. Sharq adabiyotida, ayniqsa fors-tojik, arab va turkiy adabiyotda bu vositalar chuqur estetik tizimga ega bo’lgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida tashbeh va isti’oraning boy tizimi mavjud. Navoiy:

“Bulbul misoli kuylarim, firoq o’tida yondim benavo”, - deya o’z iztirobini bulbulga tashbeh qiladi, bu yerda tashbeh bilan birga jonlantirish ham qo’llanilgan.

Yevropa adabiyotida esa barokko, klassitsizm, romantizm va modernizm kabi oqimlar badiiy san’atlarni har xil uslubda talqin qilgan. Har bir adabiy davrda san’at vositalari estetik mezonlar asosida yangicha shakllangan.

Quyida adabiyotda eng ko’p uchraydigan badiiy san’at vositalari keltiriladi:

- Tashbeh (taqqoslash)

Bir narsa yoki holatni boshqa narsaga o’xshatib tasvirlash. Masalan:

“Ko’ngul bir shisha bolsa, ishqing o’tidir andin o’tguchi. (Alisher Navoiy)
Misralarda ko’ngil - shishaga, ishq esa - o’tga o’xshatilgan. Bu badiiy san’at orqali ishqning kuchi va yurakning nozikligi chuqur ma’noda ifodalangan. [2]

- Isti’ora (kinoya-yu ramz)

Isti’orada o’xshatish ochiq bo’lmaydi, balki ramziy ma’no bilan beriladi.

“El ichra bo’ldi ko’p chirog’u mash’ala,

Ul buzuqdur - buzuqlar yaxshi ko’rar ishqala”.

Bu baytda chirog'u mash'ala degan so'zlar yo'l ko'rsatuvchi, olim yoki rahnamo ma'nosida isti'ora sifatida qo'llanilgan. Buzuq chiroq esa buzuq kimsalarni anglatadi.

- Tazod (qarama-qarshilik)

Qarama-qarshi tushunchalar vositasida kuchli ifoda yaratiladi.

“Yaxshi so'z yallig'ni o'char, yomon so'z yallig'ni keltirur.”[3]

Bu yerda “yaxshi” va “yomon”, “o'char” va “kelturur” kabi so'zlar o'zaro zid ma'noda bo'lib antitezani yuzaga keltirgan.

- Mubolag'a (bo'rttirish)

Hodisa yoki holatni ataylab ortiqcha ko'rsatish. Bu san'at turi asosan xalq dostonlarida ko'p uchraydi.

“Go'ro'g'li bir hayqirdi, daryolar ortga qochdi”.

Daryolarning ortga qochishi mubolag'a. Yoki:

“Rustam yerga urdi - tog'lar changga aylandi.”

Rustamning zarbasi tog'larni changga aylantirishi mubolag'aga yaqqol misoldir.

Badiiy san'at vositalarining rivojlanish bosqichini quyidagi uch turga bo'lish mumkin:

1. Klassik adabiyot - Navoiy, Bobur, Mashrab ijodida badiiy san'atlarning eng mukammal shakllari namoyon bo'lgan.
2. Jadid adabiyoti - badiiy san'at orqali ijtimoiy g'oyalar ilgari surilgan.
3. Zamonaviy adabiyot - ramziylik, simbolizm kuchaygan davr

Badiiy san'atlarning adabiy tahlildagi ahamiyati. Badiiy asar tahlilda ushbu san'atlarni aniqlash va ularning estetik yukini baholash muhim ahamiyatga ega. Masalan, Cho'lpon she'rlarida mubolag'a, jonlantirish va isti'ora orqali milliy iztirob kuchli ifodalanadi. Abdulla Qodiriy romanlarida kinoya va tazod orqali ijtimoiy muammolar ochib beriladi. Bu jihatlar asarning badiiy qiymatini belgilaydi. Bundan tashqari, badiiy san'atlar - poetika va stilistika sohasining asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ularning qo'llanishi orqali asarning badiiy qiymati, uslubi, muallifdunyoqarashi aniqlanadi. Adabiy tanqidda esa san'atlarning tahlili orqali asar chuqurroq anglashiladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy san'atlar: o'quvchiga estetik zavq bag'ishlash, ruhiy ta'sir o'tkazish va asar mazmunini boyitishga asosiy rol o'ynaydi. Ular adabiy tafakkurning yuksak namunasi bo'lib, har bir adibning uslubiy mahoratini namoyon etadi. Tarixiy jarayonda turli shakl va mazmun kasb etgan bu vositalar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Snoska

1. Shavkat Mirziyoyev.M. "Ijodkorlar bilan uchrashuv chog'ida aytilgan so'zlari", 2022 21-oktabr.
2. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" G'azal, 5-bob. - Toshkent: Fan nasjriyoti, 1980. - B. 112
3. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit - turk, 1. jild. - Toshkent Fan nashriyoti,1960. - B. 312.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev.M. "Ijodkorlar bilan uchrashuv chog'ida aytilgan so'zlari", 2022 21-oktabr.
2. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" G'azal, 5-bob. - Toshkent: Fan nasjriyoti, 1980.
3. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit - turk, 1. jild. - Toshkent Fan nashriyoti,1960. -
4. Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostoni. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 1985.
5. Firdavsiy. "Shohnoma". - Tehron nashri, 1956.